

8 –mavzu: Masofadan o’qitish texnologiyasi

Reja

- 1.Masofadan o’qitish asoslari.
- 2.Masofadan o’qitish modellari.
- 3.Masofadan o’qitishning afzalliklari.

Masofadan o‘qitish kunduzgi va mustaqil ta’lim olish, shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayonida kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan eng yaxshi odatdagi va inovatsion (yangi zamонавиј) o‘qitish uslublaridan foydalanuvchi ta’lim olish turidir. Ma’lum maqsadga qaratilgan va nazorat qilib turiladigan jadal mustaqil ish masofadan o‘qitish ta’lim jarayonining asosini tashkil qiladi. Bunda o‘quvchi maxsus o‘qitish vositalari majmuiga va o‘qituvchi bilan telefon, faks, oddiy pochta, elektron pochta orqali bog‘lanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan holda o‘ziga qulay bo‘lgan joyda shaxsiy reja bo‘yicha o‘qiysi.

Kompyuter vositalaridan foydalanish orqali dastlabki informatsiyalarni faqat o‘qituvchilardan emas, balki interfaol o‘qitish dasturlari orqali ham olish mumkin. O‘quvchi informatsiya vositalaridan chegaralanmagan holda foydalanib, o‘zining mustaqil ishida xohlagan vaqtda istagan mavzu bo‘yicha maslahat oladi. Bundan tashqari kompyuter unga o‘z-o‘zini doimo nazorat qilib borishi imkoniyatini beradi. Bu esa o‘qishga qiziqish uyg‘otadi va ishlarida ijodiylik darajasini kuchaytiradi.

Masofadan o'qitishning afzalligi

shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko'pgina yirik korxonalar mutaxassislarning malakasini oshirish yoki o'zgartirish uchun shu uslubdan foydalanadi.

Masofadan o‘qitish tashkiliy iqtisodiy afzalliklarga ham ega. Masofadan o‘qitish uchun talabalarga auditoriyalar, yotokxonalar zarur emas. Masofadan o‘qitishda moliyaviy harajatlar, asosan, o‘quv uslubiy materiallar tayyorlash uchun, maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Bu xarajatlarning asosiy qismi masofadan o‘qitish jarayonini tashkil etish bosqichida sarflanadi. SHuning uchun talabalar sonining oshishi bilan o‘qish narxi ham pasayadi. *Masofadan o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quv-uslubiy materialarni tayyorlashga qaratiladi.* CHunki o‘quv-uslubiy materialarning sifati masofadan o‘qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O‘quv uslubiy material qanchalik tushunarli va batafsil bo‘lsa, shunchalik u o‘quvchiga foydali bo‘ladi.

Audio va video
darsliklar

testlar

darsliklar

Masofadan o'qitish
uslubiy materiallari

Elektron
kutubxonalar

Mul'timedia –
elektron
darsliklar

On-layin darslar
(internet saxifa)

Masofadan o'qitish iste'molchilar

O'qituvchi va talabalar

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda
o'qishni davom ettiruvchilar

Boshqa o'quv yurlarining
o'qituvchilar

Mustaqil malaka oshiruvchilar

Masofadan o‘qitish moddiy bazasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ❖ axborot saqlash markazlari;
- ❖ o‘quv muassasalarining kompyuter sinflari;
- ❖ foydalanuvchilarning uy kompyuterlari;
- ❖ aloqa vositalari;
- ❖ uskuna va xizmat ko‘rsatuvchilar joylashtirilgan maxsus binolar;
- ❖ multimediani tayyorlash vositalari (videomagnitafon, videokamera, skaner va hokazo).

Masofadan o‘qitish metod va shakllari:

- *elektron darsliklar va ma’ruza matnlari, laboratoriya ishlari;
- *masofadan bajariladigan testlar va boshqa nazorat topshiriqlari;
- *elektron ma’lumotnomalar bazasi;
- *ekskursiya va amaliyotlar;
- *video va foto materiallar;
- *diplom ishi, kurs ishi himoyalari, konferensiyalarning video ko‘rinishlari;
- *masofadan mutaxassis konsultatsiyalari.

Masofadan o‘qitishning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi uchun quyidagilar ta’minlanishi shart:

- o‘quv ma’lumotlarining o‘quvchilarga o‘z vaqtida etkazilishi;
- o‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi;
- masofadan turib jamoa bo‘lib ishlash imkoniyatining mavjudligi

interfaol televideniyyaga asoslangan masofadan o‘qitish

Bugungi kunda masofadan o‘qitishning quyidagi uchta ko‘rinishi keng tarqalmoqda:

kompyuterli telekommunikatsiya (mahalliy va global) tarmoqlarga asoslangan masofadan o‘qitish

multimedia ma’lumotlaridan va kompyuterli videokonferensiyalardan foydalanuvchi telekommunikatsion, interfaol tarmoqlarga asoslangan masofadan o‘qitish

Masofadan o‘qitishning samaradorligi uni tashkil etuvchi to‘rtta element sifatiga bog‘liq:

- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning samaradorligiga;
- bunda foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalarga;
- o‘quv mahsulotlarining sifati va ularni o‘quvchilarga etkazish vositalariga;
- teskari aloqaning samaradorligiga;

SHunday qilib, ta'lim jarayonida masofadan o‘qitishdan foydalanish natijasida ta'lim tizimida nofaol o‘qitishdan faol o‘qitishga; o‘quv materialini statistik taqdim etishdan video va animatsiyalardan dinamik foydalanishga; real ob’ektlardan virtual ob’ektlarga; o‘quv materialini umumiy tarzda taqdim etishdan individual ishga; o‘quv materialini bir yo‘nalishda taqdim etishdan hamkordikda (interfaol) taqdim etishga o‘tiladi.